

## SUG'ORISH SONINING NO'XAT NAVLARINING O'SISH, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

**Mustanova Zarnigor Sobirovna**

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi*

**Annotatsiya.** Dukkakli don ekinlari bir vaqtning o'zida uchta vazifani hal qiladi. Birinchidan, don yetishtirishni ko'paytirishning muhim omili hisoblansa, ikkinchidan chorvachilikda yem-xashak muammosini hal etishda imkon yaratadi va nihoyat uchinchidan tuproq unumdorligini oshirishning manbai hisoblanadi.

**Kalit so'zlari:** sug'orish, no'xat, harorat, o'sish, rivojlanish, hosildorlik, sug'orish soni.

So'ngi yillarda iqlimni global o'zgarishi, haroratni keskin ko'tarilishi, lalmi xududlarni cho'lashishi bir davrda, axolini don va dukkakli -don ekinlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida no'xat ekinini sug'oriladigan yerlarda yetishtirish samara bermoqda.

Mamalakatimizda so'ngi yillarda paxta ekiladigan maydonlar qisqartirilib boshqoli don ekinlarning maydoni ancha kengaydi. Paxta va bedani ekib kelgan xo'jaliklar makkajo'xori, oqjo',xori va boshqoli don ekinlari bilan bir qatorda dukkakli don ekinlarini ham ekmoqdalar. Dukkakli don ekinlari bir vaqtning o'zida uchta vazifani hal qiladi. Birinchidan, don yetishtirishni ko'paytirishning muhim omili hisoblansa, ikkinchidan chorvachilikda yem-xashak muammosini hal etishda imkon yaratadi va nihoyat uchinchidan tuproq unumdorligini oshirishning manbai hisoblanadi. Ana shunday dukkakli ekinlar orasida alohida o'rinni no'xat o'simligi egallaydi.

No'xat tarkibidagi oзуqа moddalarining hazm bo'lishi juda yuqori bo'lib, 87-95% ni tashkil etadi. No'xatning oзуqaviy qiymati o'rtacha 100 g tana vazniga 329 Kkal ni tashkil qiladi. No'xat donida ko'plab muhim mineral tuzlar mavjud: 100 g don tarkibida temir va kaliy - har biri 291 mg, fosfor - 168 mg, kaltsiy - 49 mg, magniy - 48 mg, rux - 1,53 mg; shuningdek vitaminlar: A guruhlari - 1 mg, B1 - 0,116 mg, B2 - 0,063 mg, B3 - 0,526 mg, B5 - 0,286 mg, B6 - 0,139 mg, B9 - 172 mg, C - 1,3 mg, E - 0,35 mg va K - 4 mg. Dukkakli ekinlar orasida no'xat selen miqdori bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi.

Urug'larning unibchiqishi uchun avvalombor suv kerak. Urug'lar suvni o'ziga shimib bo'rta boshlaydi. Urug'larni zo'r kuch bilan bo'rtishi ularning urug' po'stini yorishiga, urug'larning esa tuproq zarrachalarini so'rib, tuproq yuzasiga chiqishga imkon beradi.



Urug'lar unib chiqishi uchun urug'da to'plangan oziq moddalar suvli muhitda sabab ma'llumki, har bir ekin turining quruq urug'lari tarkibida bog'langan suvlar bo'ladi, jumladan no'xatda ham. Lekin bu suv moddalar almashunivi jaroyanida ishtirok etmaydi. Natijada urug'lar unib chiqishi oldidan o'z vazniga nisbatan ma'lum bir miqdorda shimib olishi shart.

Biz bu tajribamizda no'xat navlari urug'larining 22-25°C haroratda qancha miqdorda suv shimib olish qobiliyatini aniqlashda har bir soatda kuzatib bordik. Tajriba 3 takroriylikda o'tkazildi. Bu esaurug'ni unib chiqishi uchun suv shimish miqdorini aniqlashga imkon beradi.

No'xat navlari urug'i suvni ma'lum bir vaqtda har xil shimib olib, dastlabki birinchi soatda ko'p miqdorda suvni o'zlashtiradi, ya'ni bunda, xo'raki navlar 33,2-42,3% hamda 166 ikkinchi soatda xo'raki navlar 14,7-17,3%, xashaki navlar 10,9-13,4% miqdorgacha suvni shimish qobiliyatiga ega. Tajribani qolgan variantlarida, ya'ni vaqt o'tishi bilan keyingi soatlaroda o'zlashtirilgan suv miqdori xo'raki navlar 13,4-16,0% xashaki navlar 8,6-9,9% to'rtinchi soatda xo'raki navlar 12,0-12,9%, xashaki navlar 7,5-9,0 % miqdorda suvni o'zlashtirgan bo'lsa, keyingi soatlarda suvni o'zlashtirish pasayib borishi kuzatildi va uchinchi soatga borib xashaki no'xat nav namunalari suvni o'zlashtirishi 0,3-1,4% atrofida kuzatildi va o'n birinchi soatga kelib suvni o'zlashtirish ayrim xo'raki navlarda nolga tenglashgan bo'lsa, xashaki no'xat navi namunalari suvni izlashtirishi 19 soat davom etdi va o'ninchi soatdan so'ng soatlar orasida suvni o'zlashtirish darajasida farq kamayib borganligi namoyon bo'ldi. Suvni o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha xo'raki navlar orasida Lazzat navi o'zining eng tez suvni o'zlashtirishi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga erishdi, ya'ni, o'ninchi soatga borib 108,3% suvni o'zlashtirgan bo'lsa, O'zbekistonskaya 32 navi o'ninchi soatda 106,4%, Yulduz navi o'n ikki soatda 204,4% suvni o'zlashtirdi. Xashaki navlar xo'raki navlarga nisbatan suvni o'zlashtirish sur'ati juda pastekanligi namoyon bo'ldi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mustanov, S. B., Mustanova, Z. S., & AB, H. (2022, June). THE IMPORTANCE OF WATERING PEAS SEEDS. In *Archive of Conferences* (pp. 196-198).
2. Мустанов, С. (2013). Значение стручковых культур в обогащении почвы биологическим азотом. *Журнал "Сельское хозяйство Узбекистана"*. Ташкент, 29.
3. S. B Mustasnov, & Z. S. Mustanova (2023). EKISH SXEMALARINING NO'XAT HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. *Academic research in educational sciences*, 4 (SamTSAU Conference 1), 670-673.
4. N. F. Boboqandov (2023). DOMINANT O'SIMLIK TURLARIDA TURLI FASLLARDA VA TURLI YAYLOV INTENSIVLIGIDA PROEKTIV QOPLAM KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHI (JANUBIY QIZILQUM). *Academic research in educational sciences*, 4 (SamTSAU Conference 1), 877-882.
5. Rayimov, B., & Mustanov, S. (2022). SUG'ORISHLAR SONINING NO'XAT O'SISHI RIVOJLANISHI VA XOSILDORLIGIGA TASIRI. *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(26), 7-9.
6. Mustanov, S., & Mustanova, Z. (2023). SUG 'ORILADIGAN YERLARDA NO 'XATNINING UMID NAVINI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 148-150.
7. N. F. Boboqandov, & Z. B. Nomozova (2023). LEONTICE TURKUM TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 4 (SamTSAU Conference 1), 679-683.
8. Mustanova, Z., & Mustanov, S. (2023). NO 'XATNING UMID NAVINING SUG 'ORISHNI ILDIZ TIZIMIDAGI TUGANAK BAKTERIYALAR SHAKLLANISHIGA TA'SIRI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(5), 94-95.
9. В. Н. Рахмонов (2023). МАИШИЙ ВА САНОАТ ОҚОВА СУВЛАРИНИ БИОЛОГИК ТОЗАЛАШДА КАРОЛИНА АЗОЛЛАСИ (AZOLLA CAROLINIANA WILLD.) ВА КИЧИК РЯСКА (LEMNA MINOR L.) ЎСИМЛИКЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Academic research in educational sciences*, 4 (SamTSAU Conference 1), 897-900.
10. Исомов, Э. Э. (2021). Онтогенез генеративных органов *Sunaga scolymus L.* в различных условиях орошения. *Вестник науки*, 5(1 (34)), 191-195.



11. Raxmonov, V. N. (2022). AZOLLA (Azolla) VA RYASKA (Lemna) O'SIMLIGIDAN BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 638-640.
12. Mahammadiyev, J. N., & Nurmanova, I. M. (2023). MIKROKAPSULYATSIYADA FAZALARARO POLIMERLANISH USULLARI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 180-182.
13. Eldor Erxonovich Isomov (2023). TURLI SUG'ORISH SHAROITLARIDA ARTISHOK (CYNARA SCOLYMUS L.) NAVLARI YER USTKI ORGANLARNING O'SISH VA RIVOJLANISH FAZALARI. *Academic research in educational sciences*, 4 (SamTSAU Conference 1), 569-576.
14. Tashpulatov, Y. S., Nurniyozov, A. A., Kabulova, F. D., Umurzakova, Z. I., & Dustov, B. S. (2020). Taxonomic Analysis of the Hydrophilic Flora of the Samarkand Region (Uzbekistan).
15. Djumayeva, G. R. (2022). ARTISHOK "CYNARA SCOLYMUS L." NING ONTOGENEZI. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 207-210.
16. Abdusalomov, J. T., & Mahammadiyev, J. N. VANADIYNING ORGANIK LIGANDLAR BILAN HOSIL QILGAN MOLEKULAR KOORDINATSIYON BIRIKMALARI SINTEZI VA ULARNING XARAKTERISTIKASI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 70.
17. Makhammadiev, J. (2020). *Mikrokapsulyasyonda emulsifiye damlacıkların korunmasında kullanılacak polimerlerin sentezi* (Master's thesis).
18. Nurmanova, I., & Mahammadiyev, J. (2023). APPLICATION OF MICROENCAPSULATION TECHNOLOGY IN THE FIELD OF TEXTILES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 712-715.

